

**O'ZBYEKISTON KASABA UYUSHMALARI FYEDYERASIYASINING  
NAVOIY VILOYAT KENGASHINING YOSHLAR BIRLASHMASI  
TOMONIDAN OLIB BORILGAN ISHLAR TO'G'RISIDA  
MA'LUMOT**

O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasining viloyat Kengashi tizimida 2019 yilda yoshlarga oid siyosatini amalga oshirishga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar Dasturiga asosan, tasdiqlangan jadval asosida ochiq muloqotlar o'tkazib, amaliy muloqot jarayonida ularni o'yantirayotgan hayotiy va kasbiy muammolarini hal etish maqsadida kasaba uyushmalari tashkilotlari birlashmasi Kengashi raisi hamda tarmoq kasaba uyushmalari mas'ul tashkilotchilarining har oyda kamida bir marta yoshlar bilan ochiq muloqotlar o'tkazilishi yo'lga qo'yildi.



Korxona, tashkilot va muassalarning jamoa shartnomalarini ishlab chiqishda joylarda yoshlar vakillari ishtirokini ta'minlash, kelishuv va shartnomalarga yoshlar uchun kiritilgan qo'shimcha imtiyoz va kafolatlarning bajarilishini monitoring qilish borish ishlari yo'lga qo'yildi.



Joriy yilning birinchi choragida birlashmaning mehnatni muhofaza qilish bo‘limi bilan hamkorlikda mehnat muhofazasi va xavfsizligi bo‘yicha jamoatchilik nazoratini tashkil etish yuzasidan “Mehnat muhofazasi bo‘yicha yosh mutaxassis” ko‘rik tanlovi o‘tkazildi.



Shuningdek, “Mening kelajakdagi ish joyim” aksiyasi doirasida yoshlarni kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka keng jalb qilish, kelajakda munosib ish joyini topishga ko‘maklashish maqsadida mart-aprel oylarida Navoiy konchilik, pedagogika institutlari hamda o‘rta maxsus kasb-hunar ta’lim muassasalari bitiruvchilarining bir guruhi bilan “Navoiy erkin iqtisodiy zonasi”dagi qo‘shma korxonalariga tanishuv tadbirlari uyushtirildi.



Navoiy viloyati kasaba uyushmalari tashkilotlari birlashmasi Kengashi, O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi, O'zbekiston Yoshlar ittifoqi Markaziy Kengashining "O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi tizimida 2019 yilda yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish yuzasidan chora-tadbirlar Dasturi"ga asosan, birlashmaning madaniy-ma'rifiy va sport ishlari bo'limi bilan hamkorlikda Navoiy shahridagi "Kurash maktabi"da viloyatimizning korxona, tashkilot va muassasalar xodimlarining oilalari o'rtasida "Sport – mustahkam oilamiz poydevori" nomli spartakiadaning viloyat bosqichi o'tkazildi.

Uch bosqichli "Sog'lom oila" shiori ostida o'tkazilgan mazkur oilaviy sport musobaqasi belgilangan Nizom talablari asosida yuqori saviyada va bayramona ruhda tashkil etildi. Sport musobaqalarining viloyat bosqichida ishtirok etuvchi tuman, shahar bosqichlarida 1-o'rinni egallagan 20 nafar oilalar belashshuvda ishtirok etishdi. Musobaqaning ishtirokchi va g'oliblari uchun hamkor tashkilotlar bilan birgalikda badiiy havaskorlik jamoalari, taniqli san'atkorlar ishtirokida madaniy dastur tashkil etildi. Musobaqa so'ngida g'olib va sovrindorlar uchun kasaba uyushmalari tashkilotlari birlashmasi Kengashining esdalik sovg'alar va diplomlari topshirildi.



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 5 iyuldagagi "Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston Yoshlar Ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi Farmoni hamda O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi, O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, O'zbekiston Yoshlar ittifoqi Markaziy Kengashining yoshlar o'rtasida "Eng faol yosh ishchi kasb egasi" tanlovinini o'tkazish to'g'risidagi qo'shma qarori ijrosini ta'minlash maqsadida ko'rik-tanloving 1-bokichi tuman shaxarlarda, 2-bosqich viloyat bosqichi tuman shaxar g'oliblari o'rtasida o'tkazilib, Navoiy shahridagi "Shirin" madaniyat saroyida "Eng faol yosh ishchi kasb egasi" viloyat tanlovi g'oliblarini taqdirlash marosimi bo'lib o'tdi. Unda viloyat kasaba uyushma faollari, viloyat o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi boshqarmasi, O'zbekiston yoshlar ittifoqi Navoiy viloyat kengashi vakillari hamda korxona, tashkilot

va muassasalari yosh mutaxassis xodimlari hamda kasb-hunar ta'limi muassasalari o'quvchilari ishtrok etdi.



O'tkazilgan viloyat bosqichida "Kompyuter va kompyuter jihozlarini ishlatalish va dasturiy ta'minoti bo'yicha texnik" nominatsiyasi bo'yicha 1-o'ringa G'olibjon Halimov, "Qurilish pardozlash ishlari ustasi" nominatsiyasi 1- o'ringa Sunatillo Sa'dullayev, "Ortopedik stomatologiya texnigi" nominatsiyasi 1-o'ringa Gulruk Ikromova, "Oshpaz" nominatsiyasi 1-o'ringa Nafisa Olimova, "Sartaroshlik va dekorativ kosmetika ustasi" nominatsiyasiga Nasiba Abdullayeva, "Qishloq xo'jaligi mashina va jihozlariga xizmat ko'rsatish mexanigi" nominatsiyasiga Suxrobjon Quvondiqov, "Sug'urta agenti" nominatsiyasiga Azizbek Xalikov, "Buxalter" nominatsiyasiga Akbar Ato耶ev, "Rassom" nominatsisi 1-o'ringa Dilobar Ro'ziyevalar loyiq topildi.



"Eng faol yosh ishchi kasb egasi" ko'rik-tanlovining viloyat bosqichida g'oliblari I, II, III darajali diplomlar hamda estalik sovg'alari bilan taqdirlandi. Ushbu ko'rik-tanlov jarayonida O'zbekiston Davlat Filarmoniyasi viloyat bo'limi, viloyat teleradiokompaniyasi, "Shirin" madaniyat saroyi jamosi kabilar faol hamkorligi uchun

tashakkurnomalar bilan rag‘batlantirildi. Tadbir so‘ngida viloyatning taniqli va yosh iste’dodli san’atkorlari tomonidan ijro etilgan kuy-qo‘shiqlar ishtirokchilar qalbiga yanada ko‘tarinkilik ulashdi.

Joriy yilning fevral-may oylarida yoshlarni iste’dodini namoyon qilish, tanlagan kasb va ixtisosliklarini chuqur o‘rganishga qiziqishini kuchaytirish, kasbiy mahorati va bilim darajasini oshirish uchun shart-sharoitlar yaratish maqsadida yosh ishchi kasb egallari o‘rtasida “Yosh kasbiy ko‘nikma soxibi” tanlovi o‘tkazish bo‘yicha barcha a’zo tashkilotlarga tanlovda ishtirok etish tavsiyasi bildirildi. Mazkur tanlovning taqdirlash marosimi joriy yilning dekabr oyida o‘tkaziladi.



Shuningdek, ijtimoiy himoyaga muhtoj, iqtidorli talabalarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida ta’sis etilgan “Kasaba uyushmalari stipendiyasi”ga nomzod etib, Navoiy davlat pedagogika institutining Tarix fakulteti, “Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi” yo‘nalishi 3 bosqich talabasi Jalilov Mirsaid Bektosh o‘g‘liga stipendiya to‘lovlari oyma-oy plastik kartasiga o‘tkazib berildi. (6 million 81 ming 900 so‘m). Ehtiyojmand va ko‘makka muhtoj Navoiy davlat pedagogika instituti talabasi Roziddin Akobirovga 2019 yilning sentabr oyida Zomin sanatoriysida sog‘lomlashtirilishi uchun imtiyozli yo‘llanma ajratildi.

Viloyat kasaba uyushmalari tashkilotlari birlashmasining 2019 yil 5 yanvarda O‘zbekiston yoshlari ittifoqi viloyat kengashi bilan qo‘shma chora-tadbirlar dasturi tasdiqlandi. Dastur doirasida tarmoq kasaba uyushmalari kengashlarining viloyat bo‘yicha mas’ul tashkilotchilari, yoshlari bilan ishlash bo‘limi, shahar va tumanlar kasaba uyushmalari tarmoq kengashlari raislari bilan hamkorlikda “Kasaba uyushmalari – bolalarga!” shiori ostida “Kitob mening do‘stim” nomli viktorina va aksiyalarni belgilangan reja asosida tashkil etish belgilab olindi.



Xususan, "Kasaba uyushmalari – bolalarga!" shiori ostida viloyat kasaba uyushmalari tashkilotlari birlashmasi tasarrufidagi "Ishonch" bolalar sog'lomlashtirish oromgohida birlashmaning Yoshlar kengashi tashabbusi bilan "Kitob – mening do'stim" mavzusida viktorina tashkil etildi. Tadbirda so'zga chiqqanlar "Kitob – ezgu maqsadlarga boshlovchi yo'l" ekanligi, kitobni sevuvchi, undan unumli foydalanuvchi yoshlar bugungi kunda o'z salohiyati tufayli Prezident sovg'asi bilan taqdirlanayotgani bir nechta kitobxon yoshlar misolida keltirildi. Viktorina shartlari bolajonlarda katta qiziqish uyg'otdi. Tadbir so'nggida faol ishtirokchilar maktab o'quv qurollari, faxriy yorliq va badiiy kitoblar bilan taqdirlandi.

Shu o'rinda aytish joizki, viloyatda joriy yilda yozgi sog'lomlashtirish mavsumida 12 ta shahardan tashqari, 5 ta kunduzgi oromgohlar faoliyati yo'lga qo'yildi. Ularda jami 14 202 nafar bolalar sog'lomlashtirilishi rejalashtirilgan. Viloyat Muvofiglashtiruvchi guruhi tomonidan Dislokatsiya tasdiqlangan. Ayni kunda barcha oromgohlarda birinchi va ikkinchi smenalar yakuniga yetkazilib, sog'lomlashtirish rejasi 60% ga bajarildi. Viloyat kasaba uyushmalari tashkilotlari birlashmasida kechayu-kunduzlik navbatchilik tashkil etilgan. Oromgohlarda mavsumning borishi har smenada bir marta Respublika Ishchi guruhi tomonidan nazorat qilindi. O'rganish natijalari bo'yicha viloyat Muvofiglashtirkvchi guruhiga ma'lumot taqdim etilib, aniqlangan kamchiliklar joyida bartaraf etish choralar ko'rilgan. Mavsumning borishi bo'yicha kunlik axborot viloyat Muvofiglashtiruvchi guruhi hamda Respublika shtabiga soat 16-00ga qadar taqdim etib borilmoqda. Mavsum yakuni bilan bolalar sog'lomlashtirish oromgoji tashkilotchilarining viloyat Anjumani o'tkazilishi ko'zda tutilgan. Viloyatda joriy yilgi sog'lomlashtirish mavsumida bolalar sog'lomlashtirish oromgohlarida jami 14202 nafar bolajonlar salomatliklarini tiklab, mazmunli va ko'ngilli xordiq chiqarishdi. Ahamiyatlisi, bolajonlar bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazib, ota-onasining bag'riga sog'-omon qaytdi.



Yosh kasaba uyushmasi faollarini respublikaning tarixiy va diqqatga sazovar joylariga sayohatlari tashkil etish maqsadida O'zbekiston kasaba uyushmalar Federatsiyasi Kengashi tashabbusi bilan amalga oshirilayotgan Xorazm viloyatiga sayohatlari davrida 100dan ortiq yoshlarning ham sayohatlarini uyuştirishga erishildi. Ayniqsa, joriy yilning 18-19 iyul kunlari "Nimkon", "Do'stlik" bolalar sog'lomlashtirish oromgohlarida namunali faoliyat yuritgan, mavsumiy ishgaga jalb etilgan 30 dan ortiq yoshlarni mazkur sayohatga jalb etildi.



1 iyun "Xalqaro bolalarni himoya qilish kuni" munosabati bilan kelajagimiz ertalari bo'lmish yoshlarning qalbida Vatanga mehr va muhabbat tuyg'ularini rivojlantirish maqsadida ko'makka muhtoj va ehtiyojmand oila farzandlarining 50 nafarini joriy yilning 28 - may sanasida Samarqandga sayohati uyuştirildi. ( Sayohat uchun 6 million 500 ming so'm mablag' sarflandi).

Yoshlar va voyaga yetmaganlar o'rtasida jinoyatchilikning oldini olish, oilalarda ahillik, tinchlik va shukronalik muhitini ta'minlash va mahalla faollarining boy

hayotiy tajribasini yoshlar o‘rtasida targ‘ib qilish va mahalla instituti rolini yanada oshirish maqsadida “Yoshlar bilan ishlashda eng namunali mahalla fuqarolar yig‘ini” Respublika tanlovining viloyat bosqichini o‘tkazishda kasaba uyushma yoshlarning ham faol ishtiroki ta’minlandi. Xususan, tanlovning bir nafar viloyat bosqichi ishtirokchisiga davlat muassasalari va jamoat xizmati xodimlari kasaba uyushmasi Navoiy shahar Kengashi tomonidan kasaba uyushmalari mablag‘idan estalik sovg‘asi taqdim etildi.

30 iyun – “Yoshlar kuni” hamda “Yoshlar oyligi” doirasida viloyat korxona, tashkilot va muassasalarda yoshlar ishtirokida “Ma’naviyat soatlari” tashkil etildi. Shuningdek, mazkur sana munosabati bilan korxona, tashkilot va muassasalar hamda bolalarni sog‘lomlashtirish oromgolarida yoshlar ishtirokida turli xil sport musobaqlari, konserт dasturlari, ko‘ngil ochar smenar-treninglar ham bo‘lib o’tdi. Tomdi tumanidagi 10 nafar kam ta’minlangan oila farzandlari uchun oziq-ovqat mahsulotlari manzilli yetkazildi. Navbahor tumanidagi 10 nafar oila farzandlariga bolalarbop kitoblar sovg‘a qilindi. Joriy yilning 30 iyun kuni soat 7 -30 da Navoiy shahridagi “Yoshlik” ko‘li atrofida bo‘lib o‘tgan ommaviy yugurish marafonida 200 nafar yoshlarning ishtiroki ta’minlandi.



Joriy yilning 12 iyun kunida Tomdi tumani “Aray” bolalar sog‘lomlashtirish oromgohida Navoiy kon-metallurgiya kombinati, viloyat kasaba uyushmalari tashkilotlari birlashmasi hamda oromgohlarni o‘rganish bo‘yicha tashrif buyurgan Respublika Ishchi guruhi vakillari ishtirokida “Biz baxtiyor bolalarmiz” mavzusida madaniy-ma’rifiy tadbir tashkil etildi. Tadbirda bolalar o‘rtasida vatanimizni madh etuvchi rasmlar ko‘rik-tanlovi tashkil etildi. Tadbir g‘oliblari faxriy yorliqlar va esdalik sovg‘alari bilan taqdirlandi.



O'zbekiston respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev rahbarligida 2019 yil 19 martda o'tkazilgan videoselektor majlisi bayonida belgilangan vazifalarda kasaba uyushmalarining faol ishtirokini ta'minlash hamda yoshlar bilan ishlashni samarali tashkil etishda madaniyat, san'at, sport, axborot texnologiyalari, kitob o'qishga qiziqishlarini oshirish bo'yicha 5 ta muhim tashabbusni amalga oshirish bo'yicha belgilangan vazifalar ijrosi ta'minlanmoqda. Shuningdek, viloyatdagি barcha bolalar sog'lomlashtirish oromgohlarida 5 ta muhim tashabbus bo'yicha targ'ibot-tashviqot ishlari olib borildi. Har bir oromgohning kirish joyiga bannerlar tayyorlandi. Tarbiyachi va yetakchilar Ish rejasiga alohida mavzular kiritilib, ijrosi naz "Kitobxonlik" aksiyasida ishtirok etilib, kasaba uyushmalarining rahbar xodimlari tomonidan o'zlari tahsil olgan maktablariga bepul kitoblar sovg'a qilindi hamda maktablarda kitoblarni tantanali topshirish tadbirlari uyushtirildi.



Viloyat hokimligi tashabbusi bilan tashkil etilayotgan “Har haftada bir kitob mutoala qilamiz” tanlovida kasaba uyushmalarining ham to‘liq ishtiroki ta’minlandi.

Navoiy shahar “Me’mor” mahalla fuqarolar yig‘ini bilan hamkorlikda joriy yilning 18 iyul sanasida Alisher Navoiy nomidagi o‘zbek tili va adabiyotiga ixtisoslashtirilgan umumta’lim maktabi binosida 5 ta tashabbus aks etgan “Ma’naviyati yetuk yurtning kelajagi buyukdir” mavzusidagi ma’naviy-ma’rifiy tadbir tashkil etildi.

“Mening mahallamga mening xissam!” va “Qishloq joylarda eski kitoblarni yig‘ish” aksiyasi doirasida mahalla fuqarolar yig‘inida kitobxonlar uchun kutubxonalar tashkil etish bo‘yicha targ‘ibot-tashvikot ishlari olib borilib, mahallalar huzurida kutubxonalar tashkil etilishiga erishilmoqda. Bundan tashqari mahallalarda badiiy havaskorlik to‘garaklari tashkil etilib, mazkur yo‘nalishlarga tuman, shahar Kengashlari hamda boshlang‘ich kasaba qo‘mitalari jalb etilmoqda. Xusan, Ta’lim, fan va madaniyat xodimlari kasaba uyushmasi Nurota tuman Kengashi mahalla bilan hamkorlikda “Bo‘duq” MFY da “Shaxmat-shashka” to‘garagi tashkil etdi. To‘garak a’zolari 56 nafar bo‘lib, ularga To‘rayeva Nodira rahbarlik qiladi. Shuningdek, Nurota tuman “Yangi bino” MFY huzurida “San’at” to‘garagi tashkil etilgan. 16 nafar bolaga Sadoqat Sunnatova va Zavqiddin Shodiqulovlar ustozlik qilib kelmoqda. “Shodimurodchorbog” MFY da “An’anaviy xonandalik” to‘garagi tashkil etilgan. Unga Mo‘tabar Alohidinova rahbarlik qiladi. 8 nafar bola to‘garak a’zosi.



O‘zbekiston DM va JXX Navoiy viloyat kasaba uyushmasiga a’zo tashkilot va muassasalarida ham Yoshlar bilan ishslashni samarali tashkil etishda 5 ta muhim tashabbusni amalga oshirish bo‘yicha belgilangan vazifalar ijrosi bo‘yicha qator ijobiylar amalga oshirildi. Jumladan, mamlakatimiz yoshlarini ayniqsa qishloqdagisi yoshlarning ma’naviy yetukligini yanada oshirish maqsadida kasaba uyushmalari qo‘mitalari tashabbuslari bilan respublikaning tarixiy qadamjolariga, madaniyat va san’at markazlariga sayohatlari doimiy ravishda tashkil etilib kelinmoqda. Mazkur tarmoqqa a’zo tashkilotlardan 700 nafardan ortiq yoshlar, Xatirchi tumanida 15 nafar, Navbahor tumanida 30 nafar, Zarafshon shahrida 60 nafar, Uchquduq tumanida 25 nafar hamda Qiziltepa tumanida 36 nafardan ortiq yoshlarni Xorazm, Buxoro, Samarqand,

Qashqadaryo, Toshkent, Navoiy(Nurota) viloyatlaridagi tarixiy qadamjolar, madaniyat va san'at markazlariga sayohatlar uyushtirildi. Bundan tashqari avgust-sentabr oylarida 840 nafar yoshlar uchun Jizzax, Toshkent, Samarqand, Buxoro, Xorazm viloyatlarining diqqatga sazovor joylariga sayohatlar rejalashtirilgan. Yoshlarni jismoniy chiniqtirish va sport sohasida qobilyatlarini namoyon qilishlari uchun Navoiy viloyat hokimligi tomonidan tashkil qilingan “Hokimlik kubogi” erkaklar o'rtasida “Mini futbol” musobaqasida tashkilotlardan 20 dan ortiq jamoalar (260 dan ortiq yoshlar) ishtirot etdi.



Respublika Statistika qo'mitasi tomonidan o'tkazilgan “Qo'mita kubogi” mini futbol musobaqasida viloyat Statistika boshqarmasidan 9 nafar yoshlar viloyat shanini sharaflı himoya qildi.



Shuningdek, Navoiy viloyati Favqulotda vaziyatlar boshqarmasi tomonidan tashkil etilgan “Xotira qalblarda mangu yashaydi” mini futbol musobaqasida 40 nafar, Navbahor tuman Kengashi boshlang‘ich tashkilotlarida o‘rtasida “Sog‘lom oila” shiori ostida o‘tkazilgan sport musobaqasida 6 nafar yosh oilalar, Milliy tiklanish partiyasi Navoiy viloyat Kenggashi tomonidan tashkillashtirilgan “O’zbek jang san’ati”, “Qo‘l jangi” sport musobaqalarida 275 nafardan ortiq yoshlari, Navoiy viloyati Statistika boshqarmasining “Aql charxi” shaxmat bo‘yicha sport musobaqasida 30 nafar yoshlari, Navoiy viloyat Bojxona boshqarmasida Bojxona xodimlari kuni munosabati bilan mini futbol musobaqasida 64 nafar yoshlari ishtirok etdi.

**Yoshlar birlashmasi raisi**

**D.O’razova**